

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**  

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘RINOVA NILUFAR MUHAMMADOVNA**

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA  
TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук**

**Contents of the abstract of the doctor of sciences (DSc)**

**O‘rinova Nilufar Muxammadovna**

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirish..... 3

**Уринова Нилуфар Мухаммадовна**

Совершенствование системы подготовки будущих учителей к тьюторской деятельности ..... 31

**Urinova Nilufar Muxammadovna**

Improving the system of training future teachers for tutoring activities ..... 63

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works ..... 68**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**  

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘RINOVA NILUFAR MUHAMMADOVNA**

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA  
TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Ped836 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNET" ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Ibraimov Xolboy Ibragimovich**  
pedagogika fanlari doktori, akademik

**Rasmiy opponentlar:**

**Xadjayev Begzod Xudoyberdiyevich,**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor;

**Erkaboyeva Nigora Shermatovna,**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor;

**Muhammadjon Quronov,**  
pedagogika fanlari doktori, professor.

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2025-yil "5" 01 kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (+99873) 244-44-93; e-mail: fardu\_info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (664 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: ((+99873) 244-44-02, e-mail: fardu\_info@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "19" 12 kuni tarqatildi.

(2025-yil "19" 12 dagi 50 raqamli reestr bayonnomasi).



**B.Sh.Shermuhammadov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**B.X.Baydjanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d.(PhD), dotsent

**B.K.Qurbonova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d.(DSc), professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda rivojlangan davlatlarda talabani universitet muhitiga integratsiyalashuvi, o'zini erkin his qilishi, o'quv va shaxsiy muammolarini hal etishda yordam beruvchi tyutorlik tizimi yaratilgan bo'lib, ushbu tizimdan adaptiv foydalanish, uning innovatsion shakl, metod va vositalarini milliy ta'lim tizimiga konvertatsiya qilish dolzarblik kasb etadi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashda ta'lim platformalarini ishlab chiqish, uni o'quv jarayoniga integratsiyasini ta'minlash va tyutorlarni baholash tizimini takomillashtirish, tyutorlarni blended learning (aralash o'qitish) texnologiyalarini qo'llashga tayyorlash bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Dunyoda oliy ta'lim tizimini yangi paradigmalarda asosida modernizatsiyalash, tyutorlik modelini joriy etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, talabalarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishning kooperativ modelini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirish, psixologik, pedagogik va amaliy tayyorgarlik mexanizmlarini ishlab chiqish, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-pedagoik shart-sharoitlarini takomillashtirishga alohida ustuvorlik qaratilmoqda. Shuningdek, individual ta'lim trayektoriyasini yaratish orqali, talabalarning o'quv-bilish faoliyatini mustaqil ta'lim jarayonida intensiv rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini transformatsiyalash jarayonlari xalqaro standartlar asosida uning tashkiliy, texnologik, metodik, madaniy hamda mazmuniy tarkibiy qismlarini takomillashtirish, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashtirishni taqozo etmoqda. Transformatsion ta'limda nafaqat texnologik modernizatsiya, balki talaba va o'qituvchi orasidagi muloqot modelining o'zgarishi, o'qituvchining mentorlik, tyutorlik va fasilitativ yo'naltiruvchi sifatida faoliyat yuritishini, shaxsiy va maxsus kompetensiyalarni shakllantirish, hamkorlikda ishlash va kreativ qobiliyatlarga ega, innovatsion fikrlaydigan kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "...Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash..."<sup>1</sup> shart-sharoitlari hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonning ustuvor yo'nalishlarida belgilangan "Oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich mazkur tizimga o'tkazish hamda "tyutorlik" tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish orqali

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.

talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish"<sup>2</sup> vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tuzilmasini aniqlashtirish, uning didaktik tizimi, modeli va pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi, 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-son "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustivor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.**<sup>3</sup> Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yirik ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan: Garvard Universiteti, Oxford universiteti, Stanford universiteti, Buyuk Britaniyadagi Edge Hill universiteti, Portugaliya Lissabon Superior Tekniko universiteti; Yaponiya Milliy ta'lim tadqiqot Instituti (National Institute for Education Research), Rossiya xalqaro menejment institutlarida ("LINK" Learning International Network) olib borilmoqda. Ushbu xalqaro tajribalarni o'rganish va milliy ta'lim amaliyotiga moslashtirish O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashda metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Jahonda bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, quyidagi natijalar olingan: tyutorlik tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha loyiha olib borilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi – o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash uchun yagona standart va malaka oshirish platformasini yaratish. Ushbu platforma pedagogik, psixologik va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan modullarni o'z ichiga

<sup>2</sup> 2019-yil 29-apreldagi PF 5712-son "O'zbekiston Respublikasi ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni

<sup>3</sup> Mazkur qism <https://www.gse.harvard.edu/news/2022/comprehensive-tutor-preparation-program>; <https://www.education.ox.ac.uk/projects/institution-wide-tutor-training>; <https://ed.stanford.edu/projects/university-wide-blended-tutor-preparation>; <https://www.gse.harvard.edu/news/2022/comprehensive-tutor-preparation-program>; <https://www.gse.harvard.edu/news/2022/comprehensive-tutor-preparation-program> <https://www.nier.go.jp/en/projects/university-wide-tutor-development> va boshqa manbalarga asoslanib yozildi.

olgan. Shuningdek, tyutorlik jarayonini monitoring qilish va baholash tizimi joriy qilindi, bu tyutorlar faoliyatining sifatini oshirishga xizmat qilgan (Harvard University); tyutorlarning pedagogik va amaliy ko'nikmalarini baholash tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, tyutorlar uchun mentorlik tizimi yo'lga qo'yildi va raqamli ta'lim platformalari integratsiya qilindi (Oxford university); barcha tyutorlarni blended learning (aralash o'qitish) texnologiyalarini qo'llashga tayyorlash bo'yicha loyiha amalga oshirilgan bo'lib, dastur doirasida pedagogik bilimlar bilan birga texnologik ko'nikmalarni ham rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tyutorlik faoliyatiga raqamli vositalar integratsiya qilingan (Stanford university); har bir talabaga individual yordam ko'rsatish, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash va ularning o'zini rivojlantirishiga qaratilgan tizim yaratilgan (Edge Hill university); talabaning universitet muhitiga integratsiyalashuvi, o'zini erkin his qilishi, o'quv va shaxsiy muammolarini hal etishda yordam beruvchi innovatsion model ishlab chiqilgan. Bu model, ayniqsa, murakkab o'quv muhitiga birinchi bor kirib kelayotgan talabalar uchun zarur bo'lgan "psixologik xavfsizlik tarmog'i"ni ta'minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi (Lissabon Superior Tecniko university); o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimi takomillashtirilib, bunda madaniy kontekstni hisobga olish, pedagogik innovatsiyalarni joriy qilish va tyutorlikni doimiy qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilgan (Yaponiya Milliy Ta'lim Tadqiqot Instituti); tyutorlik faoliyatining kontseptual asoslari, metodologiyasi va modeli shakllantirilgan (Rossiya xalqaro menejment instituti "LINK" ). Shuningdek, Farg'ona davlat universitetida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayorlash tizimi takomillashtirilib, ushbu tizimni milliy oliy ta'lim amaliyotiga joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tizim bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik kompetensiyalarini rivojlantirish, metakognitiv qobiliyat va kasbiy refleksiyaning shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida va ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilayotgan ushbu izlanishlar bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, quyidagi yo'nalishlarda muhim ilmiy natijalar qayd etilgan: individual yondashuv asosida tyutorlar faoliyatida talabalar akademik yutuqlari, psixologik holati va o'zlashtirish darajasini baholash indikatorlarini takomillashtirish; onlayn ta'lim va masofaviy o'qitishda tyutorlik xizmatlarini tashkil etish, sun'iy intellekt yordamida o'qituvchilarni kuzatish hamda individual yo'naltirish tizimlarini ishlab chiqish; tyutorlik faoliyatining psixologik va etik jihatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish; oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirish; bo'lajak o'qituvchilarda tyutorlik faoliyatini olib borish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Mazkur tadqiqotlar natijasida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuv shakllanmoqda. Ushbu yondashuv milliy ta'lim tizimini jahon ta'limiga integratsiya qilishda, shu bilan birga O'zbekistonda ta'limni modernizatsiyalash

sharoitida zamonaviy pedagog kadrlar tayorlashning ilmiy asoslarini takomillashtirishda metodologik ahamiyatga ega.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbek pedagog olimlaridan X.Ibraimov, N.Egamberdiyeva, N.Muslimov, B.Ma'murov, S.Norboyeva, M.Quronov, Z.Saliyeva, S.Sanayeva, B.Shermuhammadov, Sh.Shodmonova, Sh.Taylanova, M.Urazovalar<sup>4</sup>ning ilmiy izlanishlarida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirish, ularni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning omillari, shakllantirishning shakl, metod va vositalari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan. Tyutorlik faoliyati mazmuni, tyutorlarni amaliy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari mamlakatimiz olimlaridan F.Ibragimova, T.Kulniyazov, Y.Narzulloyev, B.Xodjayev<sup>5</sup>lar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritib berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan E.A.Andreyeva<sup>6</sup>, Y.L.Derajne, L.M.Gedgafoba, N.V.Kalistratova, E.S.Komrakov, T.M.Konovalova, T.M.Kovaleva, N.V.Pilipchevskaya, V.S.Pyanin, A.A.Popov, N.V.Rybalkina, V.S.Silitskiy, T.Y.Surnina, S.M.Yefimenko, P.G.Shedrovskiy, S.A.Shennikovlar tomonidan tyutorlik faoliyatining xorijiy modellari, rivojlanish

---

<sup>4</sup> Ibraimov X. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mazmuni // Uzluksiz ta'lim ilmiy uslubiy jurnal. 6-son. 2023. – 3-8 b.; Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика ОТМлари мисолида): пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2010. – 332 б.; Muslimov N.A. va boshq. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2013. – 128 b.; Ma'murov B.B. Bo'lajak pedagoglarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi: ped.f.d. ...dis.-T.: Fan va texnologiyalar, 2017. – 25 b.; Norboeva S.M. Talabalarda ma'naviy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish: falsafa doktori (PhD). ...diss. - Termiz, 2021. - 87 b.; Quronov M. va boshqalar. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarini tashkil qilish: – T.: Ta'faqur. 2011. – 88 b.; Saliyeva Z. Oliy ta'lim muassasasi talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari b'ycha fan doktori (DSc). ... diss. – T., 2017. – 243 b.; Sanayeva S.B. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). diss. Navoiy. – 2020. 53-95 b.; Shermuhammadov B.Sh. Ёшлар орасида миллий ғоя тарғиботи самарадорлигини ошириш («Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракати фаолияти мисолида): педагогика fanlari doktori. diss. – T., 2016. – 230 б.; Шодмонова Ш.С. Олий ўқув юрти талабаларида мустақиллик тафаккурини шакллантириш ва ривожлантириш (Касб таълими йўналиши мисолида): пед. фан. док. ...дисс. – Т., 2010. – 340 б.; Тайланова Ш.З. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларида кадрлар тизимини ривожлантириш технологиясини такомиллаштириш: пед. фан. доктори (DSc) дисс., автореферати. –Т.: 2019. – 12 б.; Уразова М.Б. Ёшлар касбий таълим педагогини лойиҳалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш: пед. фан. док. ...дисс. Автореф. – Т., 2015. – 79 б.

<sup>5</sup> Ibragimova F.X. Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlash mexanizmlari: ped.fan.dok. diss. – T., 2025. – 12-13b.; Kulniyazov T.U. O'zbekistonda yangi ta'lim konsepsiyasi sharoitida tyutorlarning amaliy faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari (oliy ta'lim muassasalari misolida): p.f.b.f.d. (PhD) diss. Avtoref. – Nukus, 2024. – 11 b.; Narzulloyev Y.U. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash texnologiyalari: p.f.b.f.d. (PhD) diss. Avtoref. – Buxoro, 2025. - 12 b.; Xodjayev B.X. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: ped. fan. d-ri ... dis. – T., 2016. – 314 b.

<sup>6</sup> Андреева Е.А. Сравнительный анализ моделей тьюторства (на примере Англии, Германии, Объединенных Арабских Эмиратов и России): автореф. дис. канд. пед. наук: – М., 2012. – 23 с. Сурнина Т.Ю. Подготовка преподавателей к реализации тьюторских технологий в профессиональной деятельности: автореф. дис. канд. пед. наук: – Новосибирск, 2008.– 24 с.; Пьянин В.С. Профессиональная подготовка бакалавров как тьюторов в условиях педагогического вуза для общеобразовательных учреждений:– Москва, 2010. – 21 с. Цилицкий В.С. Формирование готовности будущих педагогов к тьюторской деятельности : автореф. дис. канд. пед. наук: – Челябинск, 2018. – 24 с. ; Гедгафоба Л.М. Тьюторское сопровождение студентов высших учебных заведений: сравнительный анализ зарубежной и российской практики: автореф. дис. канд. пед. наук: – Владикавказ, 2014. – 24 с.; Ефименко С.М. Подготовка будущих педагогов профессионального обучения к реализации функций тьютора: : автореф. дис. канд. пед. наук: – Чебоксары, 2011. –23 с.

tarixi, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning nazariy-metodik jihatlari yoritib berilgan. G.K.Selevko, N.V.Tarasova, A.Xutorskiy, I.A.Zimnyayalar tadqiqotlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalasi ilgari surilgan.

Xorijlik olimlardan J.Flavell<sup>7</sup>, J.Locke, M.G.Moore, A.Rean, K.Rensom, Rodjers, G.Xueychjen, P.E.Wilyams tadqiqotlari tyutorlik faoliyatining mohiyati, funksional vazifalari va tyutorlar tayyorlash metodologiyasiga qaratilgan. J.Bouden, R.Field, S.McKendry, P.Leyn, D. Placier, D.Raven, V. Richardson, K.Ryerson kabi olimlar esa tyutorlik kompetensiyalari yo'nalishlari, kompetensiyalar tuzilmasi va ularni shakllantirish modellariga doir ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xorijlik va o'zbek olimlari tomonidan tyutorlik faoliyatini rivojlantirish nazariyasiga doir ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash muammosi maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, kredit modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirish masalasini kompleks tadqiq etishni taqozo etdi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'qligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Tyutorlar faoliyatini nazariy va metodik mexanizmlarini takomillashtirish" ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning tarixiy-nazariy asoslari, pedagogik-psixologik xususiyatlarini va tyutorlik kompetensiyalari tuzilmasini aniqlashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning tizimli-funksional modelini ishlab chiqish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish;

transformatsion jarayonlar sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni "YOU\_TUTOR" platformasi asosida tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mexanizmini takomillashtirish.

---

<sup>7</sup> John Locke Some thoughts concerning education Global Grey on the 11th August 2022. <https://www.globalgreyebooks.com/some-thoughts-concerning-education-ebook.html>. Moore, M. G. Distance Education: a Systems View of Online Learning Paperback, M. G. Moore, G. Kearsley. - Wadsworth Publ., 2011. — 361 p. Го Хуэйчжэнь Тьюторское сопровождение студентов из КНР в педагогическом процессе освоения академической музыкальной культуры: автореф. дис. кан.наук. — Санкт-Петербург, 2022. — 24 с., Williams P.E. Defining distance education roles and competencies for higher education institutions : a computer-mediated delphi study / dissertation Abstracts International. Texas A &M, 2020.-211 p. Raven D., Lane P. Tutoring competencies in the context of modern education: international perspectives // International Journal of Educational Development. — 2019. — Vol. 68. — P. 75–83.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Farg'ona davlat universiteti, Andijon davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat pedagogika instituti pedagogika ta'lim yo'nalishining 434 nafar respondent-talabalari va 9 nafar professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.

**Tadqiqot predmetini** bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, induksiya, deduksiya) empirik (kuzatish, suhbat, anketa, ekspert baholash, faoliyat natijalarini o'rganish, intervyu, pedagogik eksperiment) materiallarga matematik va statistik ishlov berish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mazmuni tyutorlik kompetensiyalarini uch asosiy komponentining (motivatsion-aksiologik, kognitiv-operatsion, shaxsiy-refleksiv) psixologik, ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarlik tuzilmasi bilan gorizontal va vertikal munosabatga kirishish darajasini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

tyutorlikning an'anaviy va innovatsion modellari konvergentsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning tizimli funksional modelini tashkiliy-texnologik komponenti keys-stadi, portfolio, esse, loyiha, moderatsiya texnologiyalarini auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda intensiv qo'llash samaradorligini aniqlash asosida ishlab chiqilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari ichki, tashki va maxsus pedagogik shart-sharoitlarni integratsiyalash, pedagogik jarayonni modellashtirish hamda "Tyutorlik faoliyati asoslari" nomli elektiv kursni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish asosida takomillashtirilgan;

transformatsion jarayonlar sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning 4 bosqichli texnologiyasi professional yo'naltirilgan, axborotli-nazariy, amaliy-modellashtiruvchi, o'quv-kasbiy bosqichlarda tyutorlik kompetensiyalari komponentlarini rivojlantirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mexanizmi ma'lumotlar bazasini shakllantirish, talabalar bilan individual va jamoaviy ishlash, individual ta'lim trayektoriyasini yaratish, seminar-trening, ma'rifat soati mashg'ulotlari loyihasini yaratish kabi vazifalarga ustuvorlik berish asosida "YOU\_TYUTOR" platformasini yaratish orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqot amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

"Tyutorlik faoliyati asoslari" nomli elektiv kurs, seminarlar dasturi va ularning didaktik ta'minoti yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan;

"Tyutorlik faoliyati asoslari" va "Kreativ pedagogika" nomli darslik ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

"YOU\_TUTOR" nomli mobil ilova yaratilib ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan (№ DGU 54279);

“Tyutorlik faoliyati asoslari”, “Pedagogik mahorat” va “Pedagogik texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan;

“Tyutorlik texnologiyalari va metodikalari” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** metodologik tamoyillarga asoslanilganligi, unda qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, tadqiqot maqsad va vazifalarining identivligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “tyutor”, “tyutorlik faoliyati”, “tyutorlik kompetensiyalari” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatining yoritib berilganligi, bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda tashkiliy-boshqaruv, kommunikativ, motivatsion, uslubiy, refleksiv funksiyalarning aniqlashtirilganligi, bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mazmuni, bosqichlari, texnologiyasi, pedagogik shart-sharoitlari, shakl, metod va vositalarining yoritib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning tizimli-funksional modelini ishlab chiqilganligi, uni amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari hamda shakl, metod, vositalarining aniqlanganligi, “Tyutorlik faoliyati asoslari” nomli elektiv kurs, seminarlar dasturi va ularning didaktik ta‘minoti, “YOU\_TUTOR” nomli mualliflik platformasi, ma‘rifat soati mashg‘ulotlari hamda idividual ta‘lim trayektoriyasi loyihalarini yaratilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mazmuni tyutorlik kompetensiyalarini uch asosiy komponentining (motivatsion-aksiologik, kognitiv-operatsion, shaxsiy-refleksiv) psixologik, ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarlik tuzilmasi bilan gorizont va vertikal munosabatga kirishish darajasini hisobga olish asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan 60110000 – Pedagogika ta‘lim yo‘nalishi uchun “Tyutorlik faoliyati asoslari” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 25-iyundagi 218-son buyrug‘i, 218-482-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarning tyutorlik kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

tyutorlikning an’anaviy va innovatsion modellari konvergentsiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning tizimli funksional modelini tashkiliy-texnologik komponenti keys-stadi, portfolio, esse, loyiha, moderatsiya texnologiyalarini auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda intensiv qo‘llash samaradorligini aniqlash asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 60110000 – Pedagogika ta‘lim yo‘nalishi uchun “Kreativ

pedagogika” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 7-oktabrdagi 387-son buyrug‘i, 402359-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari ichki, tashqi va maxsus pedagogik shart-sharoitlarni integratsiyalash, pedagogik jarayonni modellashtirish hamda “Tyutorlik faoliyati asoslari” nomli elektiv kursni ishlab chiqish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan 60110000 – Pedagogika ta’lim yo‘nalishi uchun “Tyutorlik faoliyati asoslari” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 25 iyundagi 218-son buyrug‘i, 218-482-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mazmunini takomillashtirishga xizmat qilgan;

transformatsion jarayonlar sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning 4 bosqichli texnologiyasi professional yo‘naltirilgan, axborotli-nazariy, amaliy-modellashtiruvchi, o‘quv-kasbiy bosqichlarda tyutorlik kompetensiyalari komponentlarini rivojlantirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan hamda bo‘lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mexanizmi ma’lumotlar bazasini shakllantirish, talabalar bilan individual va jamoaviy ishlash, individual ta’lim trayektoriyasini yaratish, seminar-trening, ma’rifat soati mashg‘ulotlari loyahasini yaratish kabi vazifalarga ustuvorlik berish asosida “YOU\_TYUTOR” platformasini yaratish orqali takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan 60110000 – Pedagogika ta’lim yo‘nalishi uchun “Kreativ pedagogika” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 7-oktabrdagi 387-son buyrug‘i, 402359-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning didaktik ta’minotini takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining abrobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 39 ta ilmiy ish, 1 ta monografiya, 2 ta darslik, 3 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, jumladan, 12 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, 245 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tatqiqotlar sharhlangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning

ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash – dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ekanligi, milliy va jahon pedagogikasida ustozshogird an'analari hamda tyutorlik modelining tarixiy tadriji, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati yoritib berilgan.

2021-yil 9-sentabrda Vazirlar Mahkamasining “Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 563-son qarorining qabul qilinishi ham talabayoshlarimizga yaratilayotgan sharoitlarni yanada takomillashtirishga qaratildi. Qarorda – bakalavriyatning 1-3-kurslari doirasida har 120-150 nafar talabaga 1 ta shtat birligi hisobida tyutor lavozimini tayinlash kabi – oliy ta'limda uzoq vaqtdan beri loyihalashtirib kelingan vazifa belgilandi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimida yangi joriy etilgan “Tyutorlik faoliyati” muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tyutor” atamasi nutqimizga ingliz tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, u ustoz va murabbiy vazifasini bajaruvchi shaxs ma'nosini ifodalaydi. Tyutorlik tizimi Buyuk Britaniyada paydo bo'lib, taxminan XIV asrda klassik ingliz universitetlari hisoblangan Oksford va keyinchalik Kembrijda ommalashgan.

Tyutor – bu oliy ta'lim muassasasida faoliyat yuritadigan, tegishli malaka talablariga javob beradigan, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan xodim bo'lib, o'ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta'lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko'maklashadi, ularni insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to'garak va klublarga jalb etish, ta'lim olish jarayonida yuzaga keladigan barcha masala va muammoni o'rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi. Xorijiy professional standartga ko'ra, tyutor – bu ta'limda tyutorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan pedagog xodimga nisbatan ishlatiladi.

Tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tyutorlik faoliyati kamida 900 –yillik tarixga ega bo'lib, u o'qitish madaniyati bilan uzviy bog'liq holda shakllangan va mustaqil pedagogik faoliyat turi sifatida rivojlanib kelgan. Bu faoliyatning mazmuni hamda ta'lim- tarbiya jarayonidagi o'rni ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarga qarab bosqichma-bosqich o'zgarib, takomillashib borgan.

Tadqiqotlar tahlili asosida tyutorlik faoliyatining rivojlanish tarixini quyidagi to'rt asosiy bosqichga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi:

I bosqich (XII–XVI asrlar). Tyutorlar talabalarni mustaqil ta'lim olishga yo'naltiruvchi, ularga maslahat va ko'mak beruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lgan. Bu davrda talaba o'zi qaysi professorni tinglashni tanlagan va ta'lim jarayonida erkin harakat qilgan. Tyutorlar esa talabaning mustaqil bilim olish yo'lini belgilashda akademik yordamchi bo'lgan.

II bosqich (XVI–XIX asrlar). Tyutorlik faoliyati ingliz universitetlari tizimida rasman tan olingan kasbga aylangan. Talabalar dastlabki bosqichda haftalik hisobotlar bilan tishingizni davom ettirgan. Ular bilan individual ish olib borilgan va tarbiyaviy masalalarda ham mas’uliyat yuklatilgan.

III bosqich (XIX–XX asrlar). Bu davrda tyutorlar asosiy bilim manbai hisoblangan. Ular talabalarni imtihonlarga tayyorlash bilan shug’ullangan, ta’lim jarayonida mustaqil mavzularni tanlab, ularni talabalarga yetkazgan. Tyutorlik faoliyati professorlik (nemis) modelini siqib chiqaruvchi pedagogik tizim sifatida rivojlangan.

IV bosqich (XXI asr). Tyutorlik zamonaviy kasb sifatida shakllanib, o’qituvchilik faoliyatining yangi shakli va lavozim majburiyatlarini belgilash bilan ajralib turadi. Hozirgi bosqichda tyutorlik faoliyati nafaqat akademik yo’l-yo’riq berish, balki rivojlantiruvchi muloqot, reflektiv tahlil, psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash, ta’limni individuallashtirish funksiyalarini o’z ichiga oladi.

Tahlil natijalari asosida tyutor – ma’naviy-axloqiy yetuklikka, pedagogik madaniyat va kasbiy kompetensiyalarga ega bo’lgan mutaxassis bo’lib, u ta’lim jarayonida talabaning shaxsiy hamda professional shakllanishini qo’llab-quvvatlovchi, rivojlantiruvchi va yo’naltiruvchi pedagogik subyekt degan xulosaga kelindi.

Tyutorlik faoliyati esa – talabaning shaxsiy, kasbiy va intellektual rivojlanish jarayonini maqsadli yo’naltirishga qaratilgan, ta’limning ma’naviy-axloqiy, o’quv-uslubiy hamda ilmiy-innovatsion komponentlarini integratsiyalash asosida amalga oshiriladigan murakkab pedagogik jarayondir. Ushbu faoliyat talabaning mustaqil ta’limini tashkil etish, uning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish, ilmiy izlanishlarga tayyorlash, o’z-o’zini boshqarish ko’nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy yetuklikka erishishga ko’maklashuvchi tizimli pedagogik hamkorlikni o’z ichiga oladi.

Tadqiqot ishimizning dastlabki bosqichida pedagogik yo’nalishda tahsil olayotgan talabalarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning real holatini, muammolarini va istiqbollarni o’rganish maqsad qilingan. Qiyosiy tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Talabalarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning qiyosiy tahlili**

<b>№</b>	<b>Asosiy jihat</b>	<b>O‘zbekiston</b>	<b>Xorijiy davlatlar</b>
<b>I</b>	<b>Me’yoriy-huquqiy asoslar</b>		
<b>1</b>	<b>Tyutorlik faoliyatining huquqiy asoslari</b>	Rasmiy tarzda ta’lim tizimida tyutorlik tushunchasi to’liq belgilab berilmagan. Kredit-modul tizimi doirasida ayrim universitetlarda joriy etilgan.	AQSh va Buyuk Britaniyada tyutorlik faoliyati ta’lim muassasasining asosiy xizmatlaridan biri sifatida qonunchilikda mustahkamlangan. Rossiyada esa “tyutor” alohida kasb sifatida tasdiqlangan.
<b>2</b>	<b>Tyutorlikni rivojlantirish bo’yicha davlat strategiyasi</b>	Hali ishlab chiqilmagan, faqat kredit-modul tizimiga mos ravishda zarurat tug’ilgan.	Ayrim davlatlarda (masalan, Finlandiyada) ta’lim strategiyasining ajralmas qismi. Talabaning farovonligini ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi.

<b>II Ta'lim dasturi va o'quv rejalari</b>			
1.	<b>Tyutorlik bo'yicha maxsus fanlar mavjudligi</b>	Kamdan-kam hollarda "Qiyosiy pedagogika" yoki boshqa fanlarda qisqacha tilga olinadi.	Buyuk Britaniyada bakalavriat darajasidayoq "Academic Tutoring" bo'yicha maxsus kurslar mavjud. Rossiyada "Tyutorlik asoslari" alohida o'quv moduli sifatida mavjud.
2.	<b>Tajriba asosidagi o'qitish</b>	Ko'proq dars o'tish, nazariy bilim berishga yo'naltirilgan. Tyutorlik faoliyati amaliyotda sinab ko'rilmaydi.	AQSh universitetlarida har bir pedagogika talabasi kamida bir semestr tyutorlik amaliyotini o'taydi. Talabalar kichik guruhlariga tayinlanadi.
<b>III Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish</b>			
1.	<b>Tyutor tayyorlaydigan mutaxassislar</b>	Pedagog-o'qituvchilar bu faoliyatni bajaradi, ammo ular tyutorlikka maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan	Maxsus tayyorlangan tyutorlar mavjud. Ular psixologiya, pedagogika, kommunikatsiya va maslahat berish bo'yicha chuqur tayyorgarlikka ega.
2.	<b>Malaka oshirish kurslari</b>	Hozircha tyutorlik bo'yicha maxsus kurslar yo'q	Har yili tyutorlar uchun maxsus treninglar, vebinarlar va attestatsiya tizimi mavjud (Buyuk Britaniya va Avstraliyada ayniqsa rivojlangan).
<b>IV Ilmiy-metodik ta'minot</b>			
1.	<b>O'quv qo'llanmalar va metodik materiallar</b>	Juda kam, mavjudlari umumiy pedagogika asoslariga yo'naltirilgan	Xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'zining tyutorlik bo'yicha qo'llanmalarini ishlab chiqqan. Masalan, "Oxford Learning Institute" tyutorlik bo'yicha boy resurslar ishlab chiqqan.
2.	<b>Ilmiy izlanishlar soni</b>	Tyutorlik faoliyatining nazariy va amaliy asoslari bo'yicha ilmiy ishlar kam	AQSh, Rossiya va Finlyandiyada har yili o'nlab dissertatsiyalar va maqolalar nashr etiladi. Tyutorlik alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida qaraladi.
<b>V Tyutorlik faoliyatining samaradorligi</b>			
1.	<b>Talabalar bilan individual ishlash darajasi</b>	Ko'proq ommaviy yondashuv mavjud. Faoliyat ko'proq baholash va nazoratga qaratilgan	Har bir talaba bilan individual ishlash, shaxsiy rivojlanish rejasini tuzish, stressni kamaytirish bo'yicha muntazam ishlanadi.
2.	<b>Natijalarni baholash</b>	Tyutorlik faoliyatining natijalari tizimli baholanmaydi	Talabaning o'sishi, ishtiroki, psixologik holati, akademik yutuqlari asosida baholanadi. Statistik tahlil mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda tyutorlik faoliyatiga ehtiyoj mavjud, ammo tizim to'liq shakllanmagan. Asosan yangi kredit-modul tizimi sababli bu faoliyatga talab ortmoqda. Xorijda esa, tyutorlik faoliyati ta'limning uzviy qismi bo'lib, individual yondashuv, shaxsiy rivojlanish va akademik muvaffaqiyatlarni oshirishda asosiy vositadir.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik asoslari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tyutorlik faoliyati tuzilmasi, komponentlari va funksiyalari, bo'lajak o'qituvchilarni

tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning funksional modeli yoritib berilgan.

Xalqaro tajriba va pedagogik-psixologik manbalarni tahlil qilish asosida O'zbekiston ta'lim tizimida tyutorning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatdik: boshqaruv funksiyasi, diagnostik funksiyasi, maqsadni belgilash funksiyasi, motivatsion funksiyasi, rejalashtirish funksiyasi, kommunikativ funksiyasi, refleksiv funksiyasi, uslubiy funksiyasi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimi kasbiy faoliyat turlari, aspektlari, yo'nalishlari va mazmuni o'z ichiga qamrab olgan. pedagogik jarayon bo'lib, ushbu jarayon tuzilmasi 1-rasmda o'z ifodasini topgan (1-rasmga qarang).

Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashda gorizontaal yo'nalish tyutorlik kompetensiyalari (motivatsion-aksiologik, kognitiv-operatsion, shaxsiy-refleksiv) komponentlarini (psixologik, ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarlikni o'zaro integratsiyasi) bir vaqtda, o'zaro uyg'un holda shakllanishni nazarda tutsa, vertikal yo'nalish bo'lajak o'qituvchilarda tyutorlik kompetensiyalarining nazariy bilimlardan amaliy faoliyatga, undan esa refleksiv tahlil va o'zini takomillashtirish darajasiga qadar izchil va bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash aspektlari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: psixologik tayyorlik, ya'ni shaxsning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi, ta'lim muassasasida ishlashga bo'lgan munosabati, talaba shaxsiga va o'qitilayotgan fanga qiziqishning mavjudligi, o'z-o'zini tarbiyalash zarurati; ijtimoiy-siyosiy, psixologik-pedagogik va maxsus bilimlarning zarur hajmini o'zlashtirishni ta'minlaydigan ilmiy-nazariy tayyorgarlik; amaliy tayyorgarlik, talab qilinadigan darajada kasbiy mahorat va ko'nikmalarni egallash uchun tegishli shart-sharoitlar mavjudligini nazarda tutadi.

Psixologik tayyorgarlik bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi, ular: motivlar, maqsadlar, qadriyatlarni tanlash, kasbiy burchini bajarishga yuqori mas'uliyat hissi, qat'iyatlilik, qaror qabul qilishda faollik va mustaqillik.


Nazariy tayyorgarlik esa, ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari, munosabatlar psixologiyasi, talabalar faoliyatini monitoring qilish shakl va usullari, pedagogik etika, tarbiya nazariyasi va metodikasi, talabalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, tyutorlik texnologiyalariga doir bilim va tajribalarni egallashdan iborat.

Biz tyutorning kasbiy tayyorgarligiga doir turli funksiyalarni o'zlashtirishi va ularni pedagogik faoliyatda amalda qo'llash bilan bog'liq ko'nikmalarni amaliy tayyorgarlik tushunchasiga kiritamiz.

Umuman olganda, pedagogika universiteti bitiruvchisining kasbiy faoliyatga tayyorligini unda kasbiy mahoratning mavjudligi yoki yo'qligi, tyutor sifatida kasbiy faoliyat motivlari, shaxsning eng muhim kasbiy ahamiyatga ega ko'nikmalari va fazilatlarini, nazariy va tashkiliy-amaliy tayyorgarlik sifati hamda

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni egallaganlik darajasi kabi parametrlar bo'yicha baholash mumkin.

Tadqiqot vazifalaridan biri bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning tizimli funksional modelini ishlab chiqishdan iborat. Komparativ tadqiqotlar natijasida tyutorlikning an'anaviy va innovatsion modellari konvergent tahlil qilindi va endogen, adaptiv, kompetentli va "Ustoz-shogird" yondoshuvlariga asoslangan tyutorlik submodellari asoslandi.



**1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimi mazmuni**

Bunda tyutorlikning endogen modelining mohiyati shaxs rivojlanishi uning ichki resurslarini ishga solishga bog'liq. Inson kapitaliga investisiya uning rivojlanishiga katta hissa bo'lib qo'shilishidan kelib chiqib belgilandi.

Kasbiy faoliyat jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning tizimli funksional modeli milliy va xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-pedagogik yondashuv va konsepsiyalar erishgan yutuqlarga tayanadi. Biz ishlab chiqqan model V.S.Pyanin, V.S.Silitskiy, T.Y.Surnina, S.M.Yefimenko, B.Xodjayev, T.Kulniyazov, Y.Narzulloyev, yondashuvlari uyg'unligida ishlab chiqildi. Yuqoridagi tadqiqotlar bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatini modellashtirishdagi komponentlarni belgilab berdi.

Biz modelni yaratishda har bir bosqichning maqsad va vazifalarini aniqlashdan boshladik. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning metodologik asoslari, pedagogik shart-sharoitlar, texnologiyasi hamda tyutorlik funksiyalari, kompetensiyalari, shuningdek, ushbu jarayonni amalga oshirishning shakl, metod va vositalari aniqlashtirildi. Modellashtirish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashga xizmat qiluvchi model strukturasi ishlab chiqdik. Ishlab chiqilgan model tarkibidagi to'rtta komponentni ajratdik. Maqsadli blok, metodologik-mazmunli blok, jarayonli-texnologik va natijaviy-baholash bloki. Quyida har bir komponent tuzilishi va mazmunini ko'rib chiqamiz.

1. Maqsadli blok - bu jamiyat va davlat talablari, ijtimoiy buyurtma va malaka talablarini uyg'unligida bo'lajak o'qituvchilarga qo'yilgan talablar, shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirishning huquqiy jihatlari, uning dolzarbligi va ijtimoiy ahamiyatini aniqlaydigan qismidir. Shu bilan birga ushbu blok diagnostika va motivatsion bosqichni o'z ichiga oladi. Bosqichning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning umumiy va kasbiy bilimlar, kasbiy rivojlanish bilan boyitish ehtiyojlari va motivlari tizimini shakllantirishdir. Ushbu bosqichda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyat subyekti sifatida individual psixologik va pedagogik xususiyatlarini o'rganishga, ularga kasbiy kamchiliklarni tushunishda va kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlarini belgilashda yordam berishga e'tibor qaratiladi. Ushbu bosqich doirasida diagnostika materiallari majmuasi shakllantiriladi va individual ta'lim trayektoriyasini loyihalashga yordam beradi.

2. Metodologik-mazmunli blokda tadqiqotda tayaniladigan yondashuvlar, tamoyillar, pedagogik shart-sharoitlar va qonuniyatlar o'z ifodasini topgan.

Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash modelini ishlab chiqish uchun quyidagi yondashuvlar asos bo'ldi: kompetensiyaviy yondashuv, subyekt-faoliyatli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, shaxsiy-aksiologik yondashuv, ekzistensial yondashuv, tizimli yondashuv.

Modelni nazariy va uslubiy asoslari sifatida bir qator umumiy pedagogik tamoyillarga tayanilgan, ular: faollik, ilmiylik, ochiqlik, mustaqillik, tizimlilik, yaxlitlik. Maxsus tamoyillar sifatida ta'limni individuallashtirish (bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash mazmunini ularning moyilligi, qiziqishlari, ehtiyojlari va kompetensiyalari va davlat talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqish) boshqaruvda qo'llab-quvvatlash (muammolar yoki kasbiy va pedagogik vazifalarni yechishda birgalikda qaror qabul qilish orqali turli xil faoliyat turlarini muvofiqlashtirish; muammolarni aniqlash va harakatlarni korreksiya qilish imkoniyati; pedagog va talaba o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish); ijobiy


motivatsiya va ta'limning qulay emotsional muhitiga asoslanganlik; hamkorlik va o'zaro hurmat; ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarning moslashuvchanligi.

Modelni amalga oshirishda bir qator qonuniyatlarga tayanildi. Pedagogik jarayon dinamikasining muntazamligi qonuni; pedagogik jarayonda shaxs rivojlanishi qonuniyati; o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish qonuniyati; rag'batlantirish qonuniyati; tashqi (pedagogik) va ichki (kognitiv) faoliyat birligi qonuniyati; pedagogik jarayonning shartliligi qonuniyati.

Jarayonli-texnologik blok bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning ta'minlaydigan bosqichini o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorlash faoliyatini muvofiqlashtiradi; bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning uslubiy vositalari bilan ta'minlaydi. Tadqiqot davomida tyutorlik kompetensiyalarining quyidagi komponentlari aniqlandi (motivatsion-qadriyatli; kognitiv-operatsion, shaxsiy-refleksiv) va ushbu kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan texnologiya ishlab chiqildi. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning lokal-modulli texnologiyasi ushbu komponentning muhim yadrosi hisoblanadi. Protsessual jihatdan to'ldiruvchi sifatida "Tyutorlik faoliyati asoslari" nomli maxsus elektiv kurs va ta'lim jarayonining majburiy elementi bo'lgan malakaviy amaliyot kiritilgan. Shu bilan birga ushbu komponentga qo'shimcha ravishda "Yosh tyutorlar maktabi" innovatsion markaz, uning negizida tashkil etilgan "Tyutorlikka ilk qadam" va "Mahoratli tyutor" maxsus o'quv-seminarlari kiritilgan. Ushbu elektiv kurs va seminarlarni tashkil etishda quyidagi tyutorlik texnologiyalari samarali qo'llanildi: loyiha asosidagi texnologiya, moderatsiya texnologiyasi, portfolio texnologiyasi, maslahat (konsultatsiya) texnologiyasi, trening texnologiyasi, kasbiy sinovlar texnologiyasi, faollashtiruvchi (aktiv) texnologiyalar, Keys-stadi texnologiyasi kabi.

Natijaviy-baholovchi bloki tyutorlik faoliyatining refleksiv bosqichi bo'lib, mezon ko'rsatkichlari va darajalarini diagnostika qilish vositalarini o'z ichiga oladi, tajriba-sinov ishlari dinamikasini aniqlash, bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorgarlik holati samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, modelning tarkibiy qismlari o'zaro bog'langan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonini amalga oshirishga imkon beradi. Quyidagi rasmda ishlab chiqilgan model mazmuni ochib berilgan (2-rasmga qarang).

Disseratsiyaning uchinchi bobi "**Bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning amaliy - texnologik tizimi**" deb nomlangan bo'lib, unda kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari, transformatsion jarayonlar sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari, "YOU\_TUTOR" platformasi asosida rivojlantirish texnologiyasi tadqiq etilgan.



**2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik modeli**

**Kompetensiyaviy yondashuv** – shaxsning bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyatlari, motivatsiya va tajribasini o‘zida uyg‘unlashtirib, muayyan hayotiy yoki kasbiy vazifalarni mustaqil va samarali hal qilishga layoqatli bo‘lishini nazarda tutadigan yondashuvdir.

Bu yondashuv o‘z tarkibida quyidagi asosiy tamoyillarni mujassam etadi: faollik tamoyili –talaba subyekt sifatida ta’lim jarayonida faol ishtirok etadi, passiv bilim oluvchidan faol bilim egasiga aylanadi; refleksiv yondashuv – talaba o‘zining bilim olish, faoliyat yuritish jarayonini tahlil qiladi, mustaqil baholaydi; o‘z-o‘zini boshqarish –talaba o‘z o‘quv faoliyatini maqsadga yo‘naltiradi, o‘z trayektoriyasini shakllantira oladi; shaxsga yo‘naltirilganlik – har bir talabaning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va bilim darajasi inobatga olinadi.

Yuqoridagi pedagogik-psixologik tadqiqotlar, malaka talablari va tyutorlikni namunaviy nizomini tahlil qilish asosida tyutorlik faoliyati yo‘nalishlari, bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantirish zarur bo‘lgan kompetensiyalar va ularning tavsifini keltirib o‘tamiz (2-jadvalga qarang).

## 2-jadval

### Bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantirish zarur bo‘lgan tyutorlik kompetensiyalari

№	Yo‘nalish	Kompetensiya	Qisqacha tavsif
1	Tarbiyaviy	Ma’naviy-tarbiyaviy	Talabalarni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash, sog‘lom muhit yaratish
		Ijtimoiy-hamkorlik	Oila, mahalla, ota-onalar bilan samarali aloqa va hamkorlik
2	O‘quv-uslubiy	Akademik nazorat	Davomat, o‘zlashtirish, akademik qarzdorliklarni kuzatish
		Ta’limni qo‘llab-quvvatlash	Mustaqil ta’lim, darsdan tashqari yordam, resurslardan foydalanishga ko‘maklash
3	Psixologik	Psixologik	Talabalarni tushunish, tarbiyasi og‘ir talabalar bilan ishlash
		Kommunikativ	Faol tinglash, muammolarni hal qilish, ota-onalar va jamoa bilan muloqot
4	Tashkiliy	Loyihalarni boshqarish	Tadbirlar, to‘garaklar, “Birinchii kurs maktabi” kabi tashabbuslarni amalga oshirish
		Guruh boshqaruvi	Talabalarni tartib, intizom va uyushqoqlik bilan boshqarish
5	Texnologik	Raqamli savodxonlik	Elektron hujjatlar, jurnal, onlayn platformalarda ishlash
		Axborot texnologiyalaridan foydalanish	O‘quv resurslari va dasturlardan samarali foydalanish
6	Ilmiy-innovatsion	Ilmiy mentorlik	Iqtidorli talabalarni ilm-fanga yo‘naltirish, maqola yozish va tanlovlarga tayyorlash
		Innovatsion yondashuv	Startaplar, grantlar, ilmiy loyihalarga talabalarni jalb etish
7	Huquqiy va etik	Huquqiy xabardorlik	Me’yoriy-huquqiy hujjatlar, qoidalar bilan ishlash
		Axloqiy-etika nazorati	Odob-axloq buzilishi holatlarini nazorat qilish, tegishli chora ko‘rish

Tyutorlik kompetensiyasi tuzilmasi sifatida motivatsion-aksiologik, kognitiv-operatsion, shaxsiy-refleksiv komponentlar aniqlashtirildi va tajriba-sinov jarayonida ularni rivojlantirishga e'tibor qaratildi.

Yuqoridagi kompetensiyalarni shakllantirish bir qator pedagogik shart-sharoitlarni taqozo qiladi. O'rganilgan tadqiqotlar tahlili asosida tadqiqot ishimizni samarali amalga oshirishga xizmat qiladigan pedagogik shart-sharoitlar majmuasi aniqlandi. Ular: ichki, tashqi va maxsus.

Quyidagi **ichki shart-sharoitlar** alohida e'tiborga olinishi zarur: ishtirokchilar o'rtasida o'zaro ishonch va hurmatga tayangan interaktiv muloqot muhiti, pedagog shaxsining individual fazilatlari hamda ularning kasbiy tayyorgarlik darajasi, ta'lim muassasasi a'zolarining ma'naviy-axloqiy faolligi va ijtimoiy tashabbus ko'rsatish salohiyati, normativ-huquqiy baza va tartibga soluvchi me'yoriy imkoniyatlar, moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, rag'batlantirishga oid tashkiliy omillar, metodik jihatdan zarur bo'lgan ta'limiy sharoitlar, ma'naviy-psixologik holat, emotsional barqarorlik va qo'llab-quvvatlovchi muhit, boshqaruv va ma'muriy jarayonlarni samarali tashkil etish.

**Tashqi shart-sharoitlar** oliy ta'lim muassasasining turli darajadagi boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqalari orqali belgilanadi. Bularga quyidagi tarkibiy jihatlar kiradi: davlat tomonidan belgilangan me'yoriy-huquqiy baza va shartlar, ilmiy-metodik ta'minot va metodologik ta'minot tizimi, turli ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va tajriba almashinuvi, mahalliy davlat organlari bilan hamkorlik.

**Maxsus shart-sharoitlar sifatida:** bo'lajak o'qituvchilarni "Tyutorlik faoliyati asoslari" nomli maxsus elektiv kursda o'qitish, malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni faoliyatini korreksiya qilib borish, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlik holatini 100 ballik tizimda baholash.

Tadqiqot ishimizni ikkinchi bosqichida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqildi va tajriba-sinovdan o'tkazildi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini amalga oshirish to'rtta o'zaro va izchil bog'langan bosqichlarda amalga oshiriladi.

**Birinchi bosqich** - (professional yo'naltirilgan) bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonining motivatsion-qadriyatli komponentini shakllantirishga qaratilgan. Bu bosqichda: bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorligining boshlang'ich darajasi baholanadi, motivlar, qiziqishlar, salohiyat va muammolar aniqlanadi, tyutorlik faoliyati haqidagi shaxsiy ma'lumotlar uzatiladi; talabalarning tyutorlik faoliyatiga ehtiyojlari borligini anglaydilar, baholash kompetensiyalari rivojlanadi, talabalarda tyutorlik faoliyatiga ijobiy munosabat shakllanadi.

**Ikkinchi bosqich** (axborotli-nazariy) bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorligining kognitiv-operativ komponentini shakllantirish bilan bog'liq. Ushbu bosqichda amalga oshirish zarur bo'lgan vazifalar: tayyorgarlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich motivlar, qadriyatlarni hisobga olgan holda, bilimlarni faollashtirish, tyutorlik faoliyatining mohiyatini ochib beruvchi konseptual kategoriyalar va ilmiy apparatni o'zlashtirish, tyutorlik va pedagogik faoliyat o'rtasida fanlararo integratsiyani tashkil etish. Kutilayotgan

natija: “Tyutorlik faoliyati asoslari” nomli elektiv kurs dasturi va uning o‘quv-uslubiy ta’minoti yaratildi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan elektiv kurs doirasida quyidagi vazifalar hal etiladi: milliy va jahon ustoz-shogird an’alarini rivojlanish tarixi, tyutorlik faoliyatining mohiyati, tuzilishi va mazmuni ochib beriladi, tyutorlik faoliyatining funksiyalari va bosqichlari bilan tanishtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatining shakl, metod va texnologiyalarini amalga oshirish uslubiyati bilan qurollantirish, talabalar bilan ularning ta’lim ehtiyojlariga muvofiq keladigan usullar va texnologiyalar yig‘indisini aniqlash.

**Uchinchi bosqich** (amaliy-modellashtirish) bo‘lajak o‘qituvchilarning tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning kognitiv-operativ va shaxsiy-refleksiv komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu bosqich maxsus ishlab chiqilgan loyiha muhitida talabalar tomonidan tyutorlik faoliyatiga oid olingan bilim va ko‘nikmalar, faoliyat usullarini amalga oshirishga xizmat qildi. Malakaviy amaliyotda tyutorlik faoliyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tadbirlar majmuasi ishlab chiqilgan texnologiyaning yanada samarali amalga oshirishga hissa qo‘shadi. Bunday tadbirlarga: bo‘lajak o‘qituvchilarning tyutorlik faoliyatini individual shakllari va vositalari to‘g‘ri tanlash maqsadida talabalarni diagnostika qilish, tyutorlik faoliyati loyihasini mazmunli va protsessual jihatlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida talabalar uchun kognitiv va shaxsiy-qiymatli faoliyatni tashkil etish uchun individual ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqishni rivojlantirish, malakaviy amaliyotda tyutorlik faoliyati samaradorligini baholash loyihaning barcha bosqichlaridagi talabalar individual yutuqlarini aks ettiruvchi kundaliklarni va portfolioni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

**To‘rtinchi bosqich** (o‘quv-kasbiy) bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash komponentlari to‘liq majmuasini shuningdek, motivatsion-qadriyatli, kognitiv-operatsion, shaxsiy-refleksiv aspektlariga oid bilim va ko‘nikmalarning turli jihatlarini amaliy faoliyatda mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu blokning asosini “Yosh tyutorlar maktabi” innovatsion markazi tashkil etadi, unda “Tyutorlikka ilk qadam” va “Mahoratli tyutor” maxsus o‘quv-seminarlari tashkil etish kiritilgan.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida tyutorlik faoliyatida qo‘llaniladigan shakl, metod va vositalardan foydalanildi (3-jadvalga qarang).

### 3-jadval

#### Tyutorlik faoliyatida foydalaniladigan shakl, metod va vositalari

Shakllar	Kuchli tomoni	Tavsiyalar
<b>Individual tyutorlik maslahat</b>	Har bir talabaning shaxsiy va ta’limiy rivojlanishi bilan bog‘liq muhim masalalarni hal qilishga imkon beradi	Har bir talabaning individual xususiyatlari, uning fe’l-atvori, muloqot ko‘nikmalarini hisobga olgan holda tashkil etish
<b>Guruh uchun tyutorlik maslahati</b>	Qiziqishlari, individual rivojlanish yo‘nalishlari bir bo‘lgan talabalarni maqsadli guruhlarga birlashtiradi hamda qo‘yilgan muammoga hamkorlikda yechim topishga o‘rgatadi	Esse, so‘rovnoma metodlarini qo‘llash asosida guruhdagi muammolarni aniqlash va unga yechim berish

<b>Tyutorial (o'quv tyutorlik seminari)</b>	O'quv tyutorlik seminari faol guruhli o'qitishni o'z ichiga oladi va talabalarning aqliy, kommunikativ va reflektiv kompetensiyalari rivojlantishga yo'naltiriladi	Guruh ishiga faol o'qitish usullari, biznes va rolli o'yinlar, guruh muhokamalari, case-study, treninglar, "aqliy hujum" metodlarini qo'llash orqali amalga oshirish
<b>Trening</b>	Talabalar bilan ishlashning dastlabki bosqichida ko'pincha- guruhlarini birlashishga, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, o'zaro ishonchni rivojlantirish, hamkorlik va o'z taqdirini o'zi belgilash ko'nikmalarini egallashga qaratilgan	Tyutorlik faoliyatida kommunikativ va motivatsion treninglarga e'tibor qaratish
<b>Ta'limiy tadbirlar</b>	Talabaning ta'lim motivatsiyasini rivojlantirish, individual ta'lim dasturlari hamda loyihalarini yaratish va amalga oshirishning maqsadi va mohiyatini ifodalaydi	Muvaffaqiyat qozongan taniqli insonlar ishtirokida o'tkazish.
<b>Muhokama/ davra suhbat</b>	Guruhda ishtirok etish va bilim olishga undaydi	Aniq maqsadni va yaxshi boshqaruvni talab qiladi
<b>Metodlar</b>	<b>Kuchli tomoni</b>	<b>Tavsiyalar</b>
<b>Keys usuli</b>	Muammoni amaliy jihatdan o'rganishga yordam beradi	Keys real vaziyatlar asosida ishlab chiqilgan bo'lishi muhim
<b>Esse</b>	Berilgan mavzu mazmuni, qoyilgan savollarga analiz va sintez qilish orqali yechim berish qobiliyatini shakllantiradi	Esse kirish, asosiy qism va xulosalar qismidan iborat bo'lishi, muammoga talabani individual yechim topishiga imkon berish zarur
<b>Aqliy hujum</b>	Jonli ishtirokni rag'batlantiradi; barcha talabalarni qamrab oladi; kreativlikni so'ndiradigan tanqiddan qochadi	Butun bir guruh muxokamada tanqidlarsiz ishtirok etishi zarur;
<b>Muammoli metod</b>	Mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat	Talabalar faol ishtirokini ta'minlash; muammoli vaziyatlarni mustaqil shakllantirish va yechish imkonini berish
<b>PORTFOLIO</b>	Talabaning barcha yutuqlarini qayd etadi va asosiy hamda qo'shimcha professional tayyorgarlik yo'nalishlaridagi rivojlanish jarayonida muntazam yangilanib boradi	Ma'lum bir model asosida shakllantiriladi
<b>Vositalar</b>	<b>Kuchli tomoni</b>	<b>Tavsiyalar</b>
Testlar va anketalar	Bilimlarni tekshirish, yangi qoidalarni kiritish imkonini beradi	Testlar berilgan mavzularga muvofiq kelishi kerak

Yuqoridagi shakl, metod va vositalardan samarali foydalanish tyutorlik faoliyatida har bir talabaning o'z muvaffaqiyatini tushunib yetishiga va o'z-o'zini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot olib borish davomida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashga xizmat qiluvchi nazariy-metodik platformani ishlab chiqishga katta ehtiyoj borligi aniqlandi.

**“YOU\_TUTOR”** (<https://app.jotform.com/251093194949467>) mualliflik platformasini yaratishdan asosiy maqsad – bo‘lajak o‘qituvchilarga foydalanishga qulay bo‘lgan, ta‘lim samaradorligini ta‘minlashga hissa qo‘shadigan o‘zida nazariy va metodik jihatdan sohaga doir barcha zaruriy manbalarni jamlagan, tyutor va talabaning kichik elektron yordamchisi bo‘lgan foydali dasturni taqdim etish. Mazkur platforma nazariy, metodik, diagnostik va baholovchi bloklardan tashkil topgan bo‘lib, ularni o‘zaro integratsiyalash va tizimli qo‘llash samaradorlikka olib keladi. Tadqiqotni boshlang‘ich va yakuniy bosqichda foydalanuvchilar Google Forms orqali so‘rovnomadan o‘tib tyutorlik faoliyatiga doir bilimlari dinamikasini refleksiya qilish imkoniga ega bo‘ladilar. “Tyutorlik faoliyati asoslari” elektiv kursining ma‘ruza mashg‘ulotlari taqdimotlari, nostandart testlar, Kahoot dasturi asosida yaratilgan testlar talabalarni auditoriyada olgan bilimlarini mustahkamlashga hamda egallangan kompetensiyalarni monitoring qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, yaratilgan loyihalar talabalarga yangi loyihalarni ishlab chiqishlarida metodik ta‘minot vazifasini o‘taydi (3-rasmga qarang).

## YOU\_TUTOR

<b>Nazariy blok</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tutorlik nizomi</li> <li>• Tutorlik tarixi</li> <li>• Tutorlik faoliyati asoslari (O‘quv dasturi, syllabus va taqdimotlar)</li> <li>• Individual ta'lim trayektoriyasi</li> </ul>
<b>Metodik blok</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tutorlik texnologiyalari</li> <li>• Tutorlik metodlari</li> <li>• Ma'rifat soati loyihalari</li> <li>• Seminar trening loyihalari</li> </ul>
<b>Diagnostik blok</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mualliflik so'rovnomasi</li> <li>• Psixologik metodikalar</li> </ul>
<b>Baholovchi blok</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Nostandart testlar</li> <li>• Kahoot testlari</li> </ul>

### 3-rasm. “YOU\_TUTOR” platformasi tuzilmasi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash samaradorligi”** deb nomlanib, mazkur bobda bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni, natijalari va statistik tahlili yoritib berilgan.

Tajriba-sinov ishlarida 2022-2025-o‘quv yillarida Farg‘ona davlat universiteti, Andijon davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat pedagogika instituti pedagogika ta‘lim yo‘nalishining 1-3 kurs 434 nafar respondent-talabalari va tyutorlari shuningdek, 9 nafar professor-o‘qituvchilari ishtirok etdi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi.

**Birinchi asoslovchi bosqichda** (2022-2023 o‘quv yili) tadqiqotning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilindi. Oliy ta‘lim muassasalarida mavjud o‘quv-uslubiy ta‘minot, jumladan, malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari, o‘quv

qo‘llanmalar va dasturlar o‘rganildi. O‘quv jarayonlaridagi mavjud holat va tyutor va talabalarning tyutorlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasi aniqlandi. So‘rovnoma, kuzatuv, intervyu va testlar orqali talabalarda tyutorlik faoliyatiga doir bilimlarning shakllanganlik darajasi o‘rganildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shartlari va qonuniyatlari aniqlandi. Tadqiqot yo‘nalishi aniqlanib, elektiv kurs va maxsus o‘quv-seminar dasturi ishlab chiqildi.

**Ikkinchi shakllantiruvchi bosqichda** (2023-2024 o‘quv yili) talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhlariga uchun maxsus ta‘lim-tarbiyaviy mashg‘ulotlar tashkil etildi. “Tyutorlik faoliyati asoslari” nomli elektiv kurs ishlab chiqilib, tajriba-sinov guruhlarida qo‘llanilgan ushbu texnologiyalar talabalarni tyutorlik kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirdi va samarali hamda zamonaviy texnologiyalar sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot davomida bo‘lajak tyutorlar uchun “Tyutorlikka ilk qadam”, “Mahoratli tyutor” o‘quv-seminari tashkil etildi. Seminarning oxirgi mashg‘uloti “Uslubiy kun” sifatida o‘tkazildi bunda tyutorlik faoliyatida erishilgan kasbiy yutuqlar namoyish etildi. “Uslubiy kun” dasturi mahorat darslari, uslubiy intensivlar, uslubiy mashg‘ulotlar, ochiq ma‘rifat soati taqdimoti, yosh tyutorlarning kasbiy rivojlanish ko‘rgazmasini o‘z ichiga oldi.

**Uchinchi yakunlovchi bosqichda** (2024-2025 o‘quv yili) tajriba-sinov ishlari davom ettirilib, talabalarning tyutorlik faoliyatiga tayyorlik holati va tizim samaradorligi aniqlandi. Dastlabki, oraliq va yakuniy natijalar umumlashtirilib, tajriba va nazorat guruhlarining natijalari matematik-statistik tahlil qilindi. Tajriba asosida xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tajriba guruhlarida uch yil davomida quyidagi ta‘limiy-dagnostik ta‘minot qo‘llanildi: “Tyutorlik faoliyati asoslari” elektiv kursi, “Tyutorlikka ilk qadam”, “Mahoratli tyutor” o‘quv-seminarlari, “YOU\_TUTOR” nomli mualliflik platformasi, “Tyutorlik texnologiyalari va metodikalari” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mexanizmlari” nomli monografiya, N.P. Fetiskin, V.V. Kozlov va G.M.Manuylov tomonidan taklif qilingan bo‘lajak tyutorlarning kommunikativ va tashkiliy moyilliklarini aniqlash metodikasi, “Bo‘lajak o‘qituvchilarda tyutorlik kompetensiyalarini aniqlash” mualliflik so‘rovnomasi kabilar.

Tadqiqot olib borilgan oliy ta‘lim muassasalari kesimida tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan talabalar soni quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topgan. (4-jadvalga qarang).

**4-jadval**

**Tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan talabalar soni**

№	O‘quv yili	Talabalar soni		
		Jami	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
<b>Farg‘ona davlat universiteti</b>				
1	2022-2023	49	24	25
2	2023-2024	50	25	25
3	2024-2025	47	23	24
	<b>Jami</b>	<b>146</b>	<b>72</b>	<b>74</b>

<b>Andijon davlat pedagogika instituti</b>				
1	2022-2023	49	25	24
2	2023-2024	45	22	23
3	2024-2025	48	24	24
	<b>Jami</b>	<b>142</b>	<b>71</b>	<b>71</b>
<b>Buxoro davlat pedagogika instituti</b>				
1	2022-2023	48	23	25
2	2023-2024	47	24	23
3	2024-2025	51	25	26
	<b>Jami</b>	<b>146</b>	<b>72</b>	<b>74</b>
	<b>Umumiy:</b>	<b>434</b>	<b>215</b>	<b>219</b>

Tadqiqot ishimiz jarayonida olingan xulosalarga asoslanib, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorgarligi samaradorligini aniqlashning diagnostik tizimini quyidagicha ifodaladik:

**motivatsion mezon** - shaxsning o'z kasbiy faoliyatini shaxsga yo'naltirilgan paradigma asosida takomillashtirishga yo'nalganligi;

**kognitiv mezon** - tyutorlik faoliyatini samarali amalga oshirishga imkon beruvchi nazariy bilimlarning egallanganligi;

**faoliyatga doir mezon** - tyutorlik faoliyatini amalga oshirishga imkon beruvchi ko'nikma va malakalar majmuyini shakllanganligi;

**Refleksiv mezon** - bo'lajak o'qituvchilarni o'z-o'zini tahlil qilish, tyutorlik faoliyatiga tayyorligini nazorat qilish. Ushbu mezonlar asosida tajriba avvali va so'nggida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan (5-jadvalga qarang).

### 5-jadval

#### Tajriba avvali va so'nggida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari

Mezonlar:	Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirish darajasi ko'rsatkichlari							
	Yuqori 90-100 ball (5 baho)	O'rta 71-89 ball (4 baho)	Quyi 60- 69 ball (3 baho)	Past 59-0 ballgacha (2 baho)	Yuqori 90-100 ball (5 baho)	O'rta 71-89 ball (4 baho)	Quyi 60- 69 ball (3 baho)	Past 59-0 ballgacha (2 baho)
	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
Tajriba avvalida								
<b>Motivatsion mezon</b>	19	76	101	19	21	71	110	17
<b>Kognitiv mezon</b>	18	75	102	20	19	72	111	17
<b>Faoliyatga doir mezon</b>	20	74	98	23	20	70	113	16
<b>Refleksiv mezon</b>	23	72	100	20	22	69	111	17

<b>O‘rtacha qiymat</b>	<b>20</b>	<b>74</b>	<b>100</b>	<b>21</b>	<b>21</b>	<b>70</b>	<b>111</b>	<b>17</b>
<b>Tajriba so‘nggida</b>								
<b>Motivatsion mezon</b>	53	130	29	3	25	82	96	16
<b>Kognitiv mezon</b>	51	132	25	7	26	85	92	16
<b>Faoliyatga doir mezon</b>	54	131	27	3	27	84	97	11
<b>Refleksiv mezon</b>	52	132	25	6	28	89	91	11
<b>O‘rtacha qiymat</b>	<b>53</b>	<b>131</b>	<b>26</b>	<b>5</b>	<b>27</b>	<b>85</b>	<b>94</b>	<b>13</b>


Endi tajriba va nazorat guruhidagi baholash natijalarini mos ravishda biror X va Y tasodifiy miqdorlarni kuzatish natijasida olingan 1- va 2- tanlanmalar deb olinsa, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo‘ladi va uni 6-jadvalda ifodalaymiz.

**6-jadval**

**Talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining statistik tahlili**

	Tajriba guruhi					Nazorat guruhi				
	$X_i$	“5”	“4”	“3”	“2”	$Y_j$	“5”	“4”	“3”	“2”
<b>Tajriba avvali</b>	$n_i=215$	20	74	100	21	$n_j=219$	21	70	111	17
<b>Tajriba so‘nggi</b>	$n_i=215$	53	131	26	5	$n_j=219$	27	85	94	13

OTMlar kesimida tajriba-sinov ishlari natijalari 4-rasmda ifodalangan.



**4-rasm. OTM lar kesimida tajriba-sinov ishlari natijalarining vizuallashtirilgan(diagramma) ko‘rinishi**

Olingan natijalarning statistik tahliliga ko'ra, samaradorlik mavjud bo'lib, ularning xulosalariga ko'ra  $N_1$  gipotezaning qabul qilinishi tajriba yakunidagi olingan natijalarga ko'ra umumiy samaradorlik 1,143 barobarga, yani 14,3% ga yuqori ekanligi statistik usullar bilan isbotlandi.

## XULOSA

1. Tyutor – ma'naviy-axloqiy yetuklikka, pedagogik madaniyat va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassis bo'lib, u ta'lim jarayonida talabanning shaxsiy hamda professional shakllanishini qo'llab-quvvatlovchi, rivojlantiruvchi va yo'naltiruvchi pedagogik subyekt degan xulosaga kelindi.

2. Tyutorlik faoliyati esa – talabanning shaxsiy, kasbiy va intellektual rivojlanish jarayonini maqsadli yo'naltirishga qaratilgan, ta'limning ma'naviy-axloqiy, o'quv-uslubiy hamda ilmiy-innovatsion komponentlarini integratsiyalash asosida amalga oshiriladigan murakkab pedagogik jarayondir. Ushbu faoliyat talabanning mustaqil ta'limini tashkil etish, uning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, ilmiy izlanishlarga tayyorlash, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy yetuklikka erishishiga ko'maklashuvchi tizimli pedagogik hamkorlikni o'z ichiga oladi.

3. Xalqaro tajriba va pedagogik-psixologik manbaalarni tahlil qilish asosida O'zbekiston ta'lim tizimida tyutorning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatdik: boshqaruv funksiyasi, diagnostik funksiya, maqsadni belgilash funksiyasi, motivatsion funksiya, rejalashtirish funksiyasi, kommunikativ funksiya, refleksiv funksiya, uslubiy funksiya.

4. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tuzilmasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: psixologik tayyorlik, ya'ni shaxsning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi, ta'lim muassasasida ishlashga bo'lgan munosabati, talaba shaxsiga va o'qitilayotgan fanga qiziqishning mavjudligi, o'z-o'zini tarbiyalash zarurati; ijtimoiy-siyosiy, psixologik-pedagogik va maxsus bilimlarning zarur hajmini o'zlashtirishni ta'minlaydigan ilmiy-nazariy tayyorgarlik; amaliy tayyorgarlik, talab qilinadigan darajada kasbiy mahorat va ko'nikmalarni egallash uchun tegishli shart-sharoitlar mavjudligini nazarda tutadi.

5. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashda quyidagi yondashuvlar tadqiqot metodologiyasi samaradorligini ta'minlab berdi. Kompetensiyaviy yondashuv, subekt-faoliyatli yondashuv, shaxsiy-aksiologik yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ekzistensial yondashuv, tizimli yondashuv.

6. Tadqiqot natijalari asosida tadqiqot ishimizni samarali amalga oshirishga xizmat qiladigan maxsus pedagogik shart-sharoitlar majmuasi aniqlandi: bo'lajak o'qituvchilarni "Tyutorlik faoliyati asoslari" nomli maxsus elektiv kursda o'qitish; malakaviy amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni faoliyatini korreksiya qilib borish; bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlik holatini 100 ballik tizimda baholash.

7. Modelni nazariy va uslubiy asoslari sifatida bir qator umumiy pedagogik tamoyillarga tayanilgan, ular: faollik, ilmiylik, ochiqlik, mustaqillik, tizimlilik,

yaxlitlik. Maxsus tamoyillar sifatida ta'limni individallashtirish (bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash mazmunini ularning moyilligi, qiziqishlari, ehtiyojlari va kompetensiyalari va davlat talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqish) boshqaruvda qo'llab-quvvatlash (muammolar yoki kasbiy va pedagogik vazifalarni yechishda birgalikda qaror qabul qilish orqali turli xil faoliyat turlarini muvofiqlashtirish; muammolarni aniqlash va harakatlarni korreksiya qilish imkoniyati; pedagog va talaba o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish); ijobiy motivatsiya va ta'limning qulay emotsional muhitiga asoslanganlik; hamkorlik va o'zaro hurmat; ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarning moslashuvchanligi (adaptivligi).

8. Modelni amalga oshirishda bir qator qonuniyatlarga tayanildi. Pedagogik jarayon dinamikasining muntazamligi qonuni, pedagogik jarayonda shaxs rivojlanishi qonuniyati, o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish qonuniyati, rag'batlantirish qonuniyati, tashqi (pedagogik) va ichki (kognitiv) faoliyat birligi qonuniyati, pedagogik jarayonning shartliligini qonuniyati.

9. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning to'rt bosqichli texnologiyasi ishlab chiqilib, texnologiyani amalga oshirish mexanizmi sifatida "Tyutorlik faoliyati asoslari" elektiv kursi, "Tyutorlikka ilk qadam" va "Mahoratli tyutor" maxsus o'quv-seminarlari tashkil etish etdi. Tajriba-sinov natijalari ushbu o'quv kurslari tyutorlik faoliyati mazmuni, texnologiyalari, shakl, metod va vositalari shuningdek tyutorlik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilganligi asoslandi.

10. Tadqiqot olib borish davomida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashga xizmat qiluvchi nazariy-metodik platformani ishlab chiqishga katta ehtiyoj borligi aniqlandi. "YOU\_TUTOR" mualliflik platformasini didaktik imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi samara berdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qilishga qaratilgan loyihalarni yo'lga qo'yish;

2) oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatiga tayyorlovchi bakalavriat va magistratura mutaxassisliklarini tashkil etish;

3) talabalar uchun yozgi tyutorlik maktablarini tashkil etish hamda tizimli va uzluksiz faoliyat olib boruvchi ilmiy-metodik seminarlarni yo'lga qo'yish;

4) tyutorlar uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarini yo'lga qo'yish;

5) tyutorlik faoliyatining innovatsion texnologiyalarini milliy qadriyatlarga uyg'unlashtirish asosida ta'lim amaliyotiga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА СНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
PhD.03/27.09.2024.Ped.05.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**УРИНОВА НИЛУФАР МУХАММАДОВНА**

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ  
УЧИТЕЛЕЙ К ТЬЮТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора (DSc) ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК**

**Фергана – 2025**

Тема диссертации доктора (DSc) педагогических наук зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2024.1.DSc/Ped836.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте по адресу (www.fdu.uz) и информационно-образовательном портале "Ziyonet" по адресу www.ziyonet.uz.

**Научный руководитель:**

**Ибраимов Холбой Ибрагимович**  
доктор педагогических наук, академик

**Официальные оппоненты:**

**Хаджаев Бегзод Худойбердиевич,**  
доктор педагогических наук  
(DSc), профессор;

**Эркабоева Нигора Шерматовна,**  
доктор педагогических наук  
(DSc), профессор;

**Мухаммаджон Куронов,**  
доктор педагогических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Джизакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится "6" "01" 2026 г. в 9:00 часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 при Ферганском государственном университете по адресу: 150100, город Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19. Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-93; e-mail: info@fdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за № 664) по адресу: 150100, город Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19, ИРЦ Тел.: (73) 244-44-02, e-mail: fardu\_info@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан "18" "12" 2025 года  
(Реестр протокола рассылки № 50 от "19" "12" 2025 года)



**Б.Ш.Шермухаммадов**  
Председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.п.н., профессор

**Б.Х.Байджанов**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.ф. по пед.наукам (PhD), доцент

**Б.К.Курбонова**  
Председатель научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В развитых странах мира создана система тьюторства, способствующая интеграции студентов в университетскую среду, их свободному самовыражению и решению учебных и личных проблем, и актуальной задачей является адаптивное использование этой системы и конвертация ее инновационных форм, методов и инструментов в национальную образовательную систему. Особенно важным является разработка образовательных платформ для подготовки будущих учителей к тьюторской деятельности, обеспечение их интеграции в учебный процесс, усовершенствование системы оценки тьюторов и подготовка тьюторов к применению технологий смешанного обучения (blended learning), что уже реализуется в рамках соответствующих проектов.

В мире проводится ряд научных исследований, направленных на модернизацию системы высшего образования на основе новых парадигм, разработку эффективных механизмов внедрения тьюторской модели и усовершенствование кооперативной модели развития самостоятельной познавательной деятельности студентов. Особенно важным является совершенствование системы подготовки будущих учителей к тьюторской деятельности, разработка психологических, педагогических и практических механизмов подготовки, улучшение организационно-педагогических условий подготовки будущих учителей к тьюторской деятельности на основе компетентностного подхода. Также, создание индивидуальных образовательных траекторий и интенсивное развитие самостоятельной учебной деятельности студентов в процессе обучения имеет важное значение.

В нашей стране процессы трансформации системы высшего образования требуют совершенствования ее организационных, технологических, методических, культурных и содержательных компонентов на основе международных стандартов, адаптации к изменяющимся социально-экономическим условиям. В трансформационном образовании внимание уделяется не только технологической модернизации, но и изменению модели коммуникации между студентом и преподавателем, активной роли преподавателя в качестве наставника, тьютора и фасилитатора, формированию личных и профессиональных компетенций, а также подготовке кадров с креативными способностями и инновационным мышлением, способных работать в команде. Стратегия «Узбекистан - 2030» ставит задачи по «расширению охвата высшим образованием, улучшению качества подготовки специалистов с высшим образованием, внедрению инновационной деятельности во всех областях, поддержке научных исследований и инновационных инициатив»<sup>1</sup>. В рамках концепции развития

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.

высшего образования до 2030 года определены приоритетные направления, такие как разработка механизмов перехода образовательных программ в кредитно-модульную систему и поэтапное внедрение этой системы, внедрение организационно-методической помощи тьюторов для развития самостоятельной учебной деятельности студентов<sup>2</sup>. Эти задачи требуют уточнения структуры подготовки будущих учителей к тьюторской деятельности, совершенствования их дидактической системы, модели и педагогических условий.

Настоящее диссертационное исследование в определённой мере способствует реализации задач, изложенных в Законе Республики Узбекистан “Об образовании” за № ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 года, “О статусе педагога” за № ЗРУ-901 от 1 февраля 2024 года, Указах Президента Республики Узбекистан “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы” за № УП-60 от 28 января 2022 года, «О государственной программе по реализации стратегии “Узбекистан – 2030” в году «Поддержки молодежи и бизнеса» за № УП-37 от 21 февраля 2024 года, «О концепции развития высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» за № УП-5847 от 8 октября 2019 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан “О мерах по радикальному совершенствованию системы духовно-просветительской работы” за № ПП-5040 от 26 марта 2021 года и других нормативно-правовых документах относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>3</sup>.** В ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира таких как Гарвардский университет, Оксфордский университет, Стэнфордский университет, Университет Эдж Хилл в Великобритании, Лиссабонский университет Superior Tesciko в Португалии, Национальный институт образовательных исследований Японии и Российский международный институт управления (LINK Learning International Network) проводятся научные исследования, направленные на подготовку будущих учителей к тьюторской деятельности. Изучение данных международных практик и их адаптация к национальной образовательной практике служат методологической основой подготовки будущих педагогов к тьюторской

<sup>2</sup> 2019-yil 29-apreldagi PF 5712-son “O‘zbekiston Respublikasi ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

<sup>3</sup> Mazkur qism <https://www.gse.harvard.edu/news/2022/comprehensive-tutor-preparation-program>; <https://www.ed.stanford.edu/projects/university-wide-blended-tutor-preparation>; <https://www.gse.harvard.edu/news/2022/comprehensive-tutor-preparation-program>; <https://www.nier.go.jp/en/projects/university-wide-tutor-development> va boshqa manbalarga asoslanib yozildi

деятельности в системе высшего педагогического образования Республики Узбекистан.

